

XORIJY TILGA EGA BO'LMAGAN YO'NALISHLARDA CHET TILINI  
O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Nuraliyev Elmurod Abdurayemovich

*Falsafa fani o'qituvchisi*

Nuraliyeva Shahnozabonu Elmurodovna

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*[shaxnozanuraliyeva28@gmail.com](mailto:shaxnozanuraliyeva28@gmail.com)

**Annotation:** *This article is written mainly about methods of teaching a foreign language and interactive games to students of non-philological or non-language teaching fields. As an example, the subjects of history and philosophy are introduced.*

**Keywords:** *foreign language (FL), philosophy, history, practice, literature*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola asosan nofilologik yoki tillarni o'qitishga ixtisoslashmagan yo'nalishlarga oid o'rganuvchilarga chet tilini o'qitish usullari hamda interfaol o'yinlar haqida yozilgan. Misol tariqasida esa tarix, falsafa fanlari kiritib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xorijiy til, falsafa, tarix, ko'nikma, adabiyotlar.*

Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiya rivojlangan asrda turli sohalarni mukammal o'rganish va yetuk bilimli kadrlar tayorlash uchun mutaxassislar o'z izlanishlari bilan bir qatorda chet ellarga ham borib malaka oshirib, o'zga yurtdagi hamkasblari bilan tajriba va bilim almashinib kelishmoqda. Va buning uchun eng muhim va kerakli omillardan biri bu chet tili egallashdir. Ilmiy maqsadlar egallash yo'lidagi asosiy omil bu mutaxassislikka oid bo'lgan axborotlarni olish uchun original adabiyotlarni o'qish va og'zaki mulohazalarda ishtirok eta olish, o'z fikr – mulohazalarini tushuntira bera olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida xorijiy til ya'ni asosan ingliz tili o'qitilib kelinmoqda. Bu ishlarning asl maqsadi – chet tilini o'rganayotgan nomutaxassis yokida til o'qitishga asoslanmagan kadrlar o'z mutaxassisliklariga tegishli adabiyotlarni yozilgan aslicha o'qiy olishi, ularni o'rganishi va o'rgangan bilimlarini tajribada qo'llay olishi uchun ham hozirgi zamonning asosiy talablaridan biridir.

Asosiy fanlaridan biri ingliz tili bo'lmagan va chet tiliga ixtisoslashmagan o'quv yurtlarida chet tilini interfaol usullar orqali o'qitish ham samara beradi, talabalarda esa tafakkurni keng shakllantirish bilan bir qatorda ingliz tilida ma'lumot berish va olish imkoniyatini oshiradi. Bu esa ingliz tili haqidagi yangidan yangi ma'lumotlarga ega bo'lish va o'z sohasiga oid ilmiy izlanishlarni kuzatib borish va yangiliklardan boxabar bo'lish kabi yuqori darajadagi yutuqlarni beradi. Talabalarga o'z kasbiga tegishli manbalarda ma'lumotlar olish ancha qiziqarli bo'ladi va ma'lumotlarda berilgan atamalarni bilishlari kerak. Xatto oddiy biz maktablarda o'qiydigan darsliklardagi ma'lumotlar ham asl manbalarni tarjima qilish va unga o'z bilim va mintalitetimizni hamohang qilgan holda kiritiladi.

Masalan, falsafa fanini oladigan bo'lsak, ushbu fanni ham mukammalroq o'rganish uchun chet tillarini bilish muhim rolga ega. Chunki, falsafa fani qadimiy fanlardan hisoblanib, bu fan barcha fanlar bilan o'zaro bog'liqdir. Unga oid ma'lumotlar ko'p va keng qamrovli. Bu fanning taraqqiyotiga bizning yurt allomalari bilan bir qatorda chet ellik allomalar ham

o'zlarining katta hissalarini qo'shib kelishgan. Bu degani, bu fanga oid kuchli va muhim ma'lumotlar to'plash uchun albatta chet tilini bilish joiz.

Misol qilib, "Uyg'onish davri ingliz falsafasi- Francis Bacon (talaffuzi: Frensis Bekon) ingliz faylasufini oladigan bo'lsak, falsafaga oid 2 ta - "Yangi organon" (1620), "Yangi Atlantida" (1627) asarlari bor. Birinchi kitobida Aristotel "Organon" idagi dedaktiv uslubning hayotdan ajralganligini tanqid qilib, indaktiv uslubga asos solidi. Fan tajribaga asoslanishi kerakligi haqidagi g'oyani olg'a surib i.t. ning kuzatish, eksperiment, tajriba uslublarini ishlab chiqadi. Bacon bevosita tajribaga asoslangan bilimlar ishonarli bo'lishini ko'rsatdi." [1]

Ingliz falsafasida Jon Lokk (1632-1704) qarashlari ham alohida o'z o'rniga ega. U bilisning asosiy manbai bu tajriba deydi. Va u bunda ichki va tashqi tajribani ajratib ko'rsatadi. Lokk 1690- yilda yozgan "Inson aqli haqida tajriba" nomli asarida R. Dekartning "tug'ma g'oyalari" to'g'risidagi qarashlariga qarshi fikr bildiradi. Bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir, deya fikr bildirgan. Mana o'zingiz guvohi bo'lganingizdek yuqoridagi kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun biz albatta chet tilini bilishimiz zarur. Asl ma'lumotlarni egallash va ularning asl mazmun mohiyatini tushunib yetish uchun yozilgan asarlarning asl nusxalarini o'qish kerak. Har bir tilga qilingan tarjimada baribir o'zgarishlar kiritiladi. Afsuski ayrim tarjimalarda esa asarda keltirilgan ma'lumotlar o'zgarishi, mazmun to'laqonli ochib bera olinmaslik holatlari ham kuzatiladi.

Yokida keling tarix fanini oladigan bo'lsak, bu fan ham juda katta va chuqur ma'lumotlarga boy fan. Bu fanning biror bir mavzusiga oid ilmiy ish, o'quv darsliklari va yoyingki kichik bir tezis yozish uchun ham tanlangan mavzuni mukammal o'rganish lozim. Bu ham o'z o'zidan manbalar o'qish, turli xil asar va kitoblarni ko'rib izlanish kerakligiga ishora qiladi. E'tibor bergan bo'lsangiz tarix darsliklarida o'zga mamlakatlar haqida ko'p va xo'p ma'lumotlar bor. Albatta, bu ma'lumotlarni kiritish uchun darslik mualliflari ko'plab izlanishlar bilan bir qatorda tarjimalar ustida ham ishlaganlar.

Hozirgi kunda ingliz tilini bohsqa fan o'qituvchilari yokida talabalari oson o'rganishlari uchun turli xilninterfaol usullardan foydalanib kelinmoqda. "Zanjir" (chain drill), "buzuq telefon" (broken phone) va boshqalar shular jumlasidandir. "Zanjir" (chain drill) bu usul guruh bo'kib o'ynaladigan o'yinlar sirasiga kiradi va unda bir o'quvchi o'zi yodlagan so'zni aytsa, ikkinchi o'quvchi esa uning so'zi bilan ketma ket boshqa yana bir yodlagan yangi so'zini aytadi va shu tariqa barcha o'quvchilar aytilgan so'zlarga o'zlari yod olgan yangi so'zlarni qo'shib takrorlab ketishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bejizga aytishmagan "Til bilgan el biladi" deb va chet tillarini o'rganish zamon talabi bo'lib qoldi. Ko'p tillilikni keng imkoniyatlar eshiklarining kalitiga o'xshatsak ham mubolag'a bo'lmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi". "Science and education" scientific journal, isroilova Dilbarxon Akramovna.

2. Francis Bacon, *First published Mon Dec 29, 2003; substantive revision Fri Dec 7, 2012.* <https://plato.stanford.edu/entries/francis-bacon/>
3. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma).